



Tashqi savdo



TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT

2017 yil
yanvar-noyabr

Respublikada tashqi savdo aylanmasi 2017 yil yanvar-noyabr oylarida 24,2 mlrd. AQSh dollarini, shu jumladan eksport 12,3 mlrd. AQSh dollarini va import 11,9 mlrd. AQSh dollarini tashkil qildi. Tashqi savdo aylanmasi saldosi 492,2 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

Oxirgi yillarda Respublikaning eksport tarkibida qariyb barcha tovarlar va xizmatlar guruhlari bo'yicha o'sish kuzatilmoqda.

Transformator va akkumulyatorlar eksportining o'tgan yilning shu davriga nisbatan 45,3 foizga, kabelli sim mahsulotlarining 26,9 foizga, qozonlar, uskunalar va mexanik asboblarning 30,9 foizga o'sishi, mashina va asbob-uskunalar 62,7 foizga o'sishiga olib keldi.



Alkogolli va alkogolsiz ichimliklar eksportining o'tgan yilning shu davriga nisbatan 60,8 foizga, bug'doy - 36,7 foizga va meva-sabzavot mahsulotlari va ularni qayta ishlash 14,7 foizga o'sishi, oziq-ovqat mahsulotlari hajmini 24,8 foizga o'sishiga olib keldi.


Qora va rangli metallarni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 27,7 foizga o'sishiga, rux va undan tayyorlangan mahsulotlarni 47,5 foizga, alyuminiy va undan tayyorlangan mahsulotlarni 68,0 foizga, mis va undan tayyorlangan mahsulotlarni 30,9 foizga o'sishi sabab bo'ldi.

Import tarkibining umumiy xajmidan 38,3 foizni mashina va asbob-uskunalar va 16,9 foizni kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar tashkil qiladi.

Xizmatlar eksporti



Eksport tarkibining umumiy xajmidan 25,9 foizni xizmatlar tashkil qiladi, bunda transport xizmatlari 11,8 foizni va safarlar 11,7 foizni tashkil qiladi.




2017 yil yanvar-noyabr oylarida respublika tashqi savdo aylanmasida eng katta ulushga ega bo'lgan mamlakatlar, foizda

MDH davlatlari orasida Rossiya, Qozog'iston, Ukraina, Qirg'iziston va Tojikiston davlatlari tashqi savdo aylanmasida asosiy xamkorlar hisoblanib, ularning jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 29,1 foizni tashkil qildi, boshqa davlatlar orasida Xitoy, Turkiya, Koreya Respublikasi, Germaniya, Afg'oniston, Braziliya, Xindiston, Eron, Latviya, Frantsiya, Litva, AQSh, Italiya davlatlari hisoblanadi va ularning ulushi 41,9 foizni tashkil qildi.



Jami eksport xajmida eng katta ulushga ega bo'lgan mamlakatlar, foizda


Jami import xajmida eng katta ulushga ega bo'lgan mamlakatlar, foizda



Meva-sabzavot mahsulotlari va ularni qayta ishlash eksport xajmi 650,0 mln. AQSh dollarini tashkil qildi, yoki o'tgan yilning shu davriga nisbatan 14,7 foizga oshdi. Meva-sabzavot mahsulotlari va ularni qayta ishlash eksport xajmida 36,8 foizni meva va rezavorlar (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 15,7 foizga o'sdi), 29,8 foizni sabzavotlar (18,5 foizga), 22,8 foizni uzum (10,3 foizga) va 4,2 foizni qayta ishlangan meva va sabzavot mahsulotlari (56,2 foizga) tashkil qiladi.

Tashqi savdo aylanmasida asosiy xamkor davlatlar Qozog'iston (umumiy hajmdan 47,6 foiz), Rossiya (18,6 foiz), Afg'oniston (6,1 foiz), Xitoy (5,4 foiz), Turkiya (4,6 foiz) Qirg'iziston (4,5 foiz), va Iroq (1,7 foiz) hisoblanadi.

Yirik hamkor davlatlar bo'yicha meva-sabzavot mahsulotlari va ularni qayta ishlashning eksportdagi ulushi, foizda



Eksport tarkibining umumiy xajmidan 5,3 foizni meva-sabzavot mahsulotlari va ularni qayta ishlash tashkil qiladi



To'qimachilik mahsulotlari eksporti

To'qimachilik mahsulotlari eksport xajmi 1022,4 mln. AQSh dollarini tashkil qildi yoki o'tgan yilning shu davriga nisbatan 23,4 foizga oshdi. To'qimachilik mahsulotlari eksport xajmida 55,4 foizni paxta tolali ip (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 27,5 foizga o'sdi), 24,2 foizni tayyor trikotaj mahsulotlari (27,0 foizga) va 4,9 foizni paxta tolali ip gazlamalar (18,1 foizga) tashkil qiladi.



Davlat statistika qo'mitasi
Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi boshqarmasi

Nashr uchun mas'ul:

Bo'lim boshlig'i J.Yuldashev

71) 230-80-44